

Muhandislik yo‘nalishini targ‘ib qiluvchi videoroliklar ishlab chiqishga qaratilgan tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi to‘g‘risida nizom

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom muhandislik yo‘nalishi bo‘yicha keng tushuncha shakllantirishga qaratilgan videoroliklar ishlab chiqish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish jarayonini ijodiy yondashuvlar asosida yoritib berish maqsadida o‘tkaziladigan Muhandislik yo‘nalishini targ‘ib qiluvchi videoroliklar tanlovini (keyingi o‘rinlarda tanlov deb yuritiladi) tashkil etish, o‘tkazish tartibi, arizalarni qabul qilish, baholash mezonlari hamda g‘oliblarni taqdirlashni belgilaydi.

2. Mazkur tanlov O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etiladi, o‘tkaziladi hamda g‘oliblari aniqlanadi.

3. Tanlov **maqsadi** — Muhandislik yo‘nalishi bo‘yicha keng tushuncha shakllantirishga qaratilgan videoroliklar ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash, videoroliklarni keng targ‘ib qilish, aholida ayniqsa yoshlarda muhandislik yo‘nalishi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish jarayoni bo‘yicha ijodiy yondashuvlar asosida tushuncha hosil qilish.

4. Tanlov to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, tanlov qoidalari va shartlari, ro‘yxatdan o‘tish shartlari, tanlovda qatnashish uchun ariza berish to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

5. Tashkilotchilar tanlov qoidalarini o‘z ixtiyori bilan bir tomonlama o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi va ushbu o‘zgartirishlar vazirlikning rasmiy veb-saytida e‘lon qilish orqali amalga oshiriladi. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar vazirlikning rasmiy veb-saytida e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

III. Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar

6. Tanlovda ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:
30 yoshdan oshmagan iqtidorli yoshlar;
har bir ishtirokchi faqat bitta videorolik bilan ishtirok etishi mumkin;
videorolikni yaratishda boshqa roliklardan foydalanish qat‘iyan man etiladi;
har bir ishtirokchi videorolik uchun javobgar;
ikkita ishtirokchi birgalikda yoki jamoa bo‘lib ishtirok etishi taqiqlanadi;
videorolikdagi foydalanilgan kadrlarning kamida 60 foizi ishtirokchilar tomonidan tasvirga olingan bo‘lishi lozim;

videorolikda qonunchilikka va odob-axloqqa qoidalariga zid bo‘lgan lavhalar bo‘lmasligi lozim;

videoda ovozlashtirishda professional dublyaj yoki musiqiy fon berish mumkin;
ovoz va video sifati yuqori darajada bo‘lishi kerak.

7. Taqdim etiladigan videoroliklar uchun quyidagi talablar mavjud:
davomiyligi eng kamida 1:30 daqiqa (90 soniya)dan dan 3:00 daqiqa (180 soniya)gacha davom etishi lozim;

formati mp4 (FullHD 1920*1080), (1080R), (albom) shaklda bo‘lishi lozim;


videorolikdagi yozuvlar va ovozlar to‘liq o‘zbek tilida va lotin yozuvida bo‘lishi shart;

vizual dizayn: yaxshi tasvir, grafikalar, animatsiyalar va muhandislik jarayonlarini ko'rsatadigan grafikalar qo'llash mumkin. Har bir segmentni aniq va tushunarli qilib ko'rsatish;



sahnalashtirish: muayyan loyihalar va eksperimentlarni amaliy ko'rsatish, masalan, robototexnika, qurilish, dasturiy ta'minot yaratish;

musiqa va effektlar: har bir segmentga mos uyg'otuvchi musiqa, motivatsion va energiya beruvchi ovozlari hamda ovoqli effektlar qo'llash mumkin.

Quyida ko'rsatilgan formatdagi videoroliklar qabul qilinadi:



Quyida ko'rsatilgan formatdagi videoroliklar qabul qilinmaydi:



8. Tanlovga jo'natilgan videoroliklar quyidagi maqsad va vazifalarni o'z ichiga olishi kerak:

muhandislik sohasining ahamiyati, imkoniyatlari va foydaliligini ko'rsatib berish; aholi va yoshlar o'rtasida muhandislikka qiziqishni oshirish, unga oid tushunchalarni shakllantirish;

zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish jarayoni yoritish; kreativ g'oyalarga va ijodiy yondashuvga ega bo'lishi.

9. Taqdim etiladigan videoroliklar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: muhandislik sohasining umumiy ko'rinishi, uning hayotdagi ahamiyati va innovatsiyalar;

muhandislik yoshlarning hayotini tubdan o'zgartirganligini ko'rsatib beruvchi videoroliklar;

muhandislikka oid fanlarning ahamiyatini, ularni o'rganish muhimligi va ularning maktablarda o'rgatilishi;

turli muhandislik yo'nalishlari (masalan, elektronika, robototexnika, mexanika, dasturiy ta'minot va boshqalar)ni ochib berish;

muhandislik sohasida ishlash imkoniyatlari, muvaffaqiyatli muhandislarning hikoyalari;

muhandislik sohasidagi so'nggi texnologik yangiliklar va tendensiyalar.

IV. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

10. Tanlovda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish tartibi:

Ishtirokchilar maxsus ochilgan google formada ko'rsatilgan ma'lumotlarni to'ldirishlari lozim.

11. Tanlovga videoroliklar 2024-yilning 5-sentyabr kuni soat 00:00 dan 25-sentyabr kuni soat 23:59 ga qadar topshiriladi.

12. Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan arizalar 1 oy muddatda tanlov komissiyasi tomonidan tegishli ekspertiza bosqichidan o'tkaziladi.

13. Tanlov komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchilarni taqdirlash marosimi 2024-yilning noyabr oyida bo'lib o'tadi.

14. Tayyorlangan videorolik tanlov komissiyasiga, tanlovning yakuniy kuniga qadar nizomga muvofiq ko'rsatilgan vaqtdan kechiktirmasdan taqdim etilishi zarur.

V. Tanlov g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

15. Tanlovda g'olib bo'lganlarni aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda taqdim etilgan videoroliklar Yoshlar akademiyasi tomonidan dastlabki texnik ekspertizadan o'tkaziladi. Bunda ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar va videoroliklar ushbu nizomning 7-, 8-bandlarida belgilangan talablarga muvofiq topshirilganligi tekshiriladi.

2-bosqichda texnik ekspertizadan saralab olingan videoroliklar tashkilotchilarning telegram kanaliga ovoz berish uchun joylashtiriladi. Ovoz berish jarayonlari 5-oktyabr soat 00:00 dan 10-oktyabr soat 23:59 gacha davom etadi. Shundan so'ng tanlov komissiyasi tomonidan mazkur nizomning 16-bandida belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi hamda eng yuqori ball to'plagan 5 nafar g'oliblar aniqlanadi.

16. Tanlov komissiyasi tomonidan baholash uchun taqdim etilgan videoroliklar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

videorolik reglament talablariga javob berishi;

videorolik kreativ yondashilgan bo'lishi;

videorolik muhandislik yo'nalishida to'liq tushuncha bera olishi kerak.

17. Videoroliklarni baholash tanlov ishchi guruh a'zolari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan amalga oshiriladi.

T/r	Baholash mezonlari	Ballgacha
1.	Videorolikda tanlov mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berilganligi	15 ballgacha
2.	Videorolikning mazmuni, unga bog'liq bo'lgan jarayonlarni kreativ nuqtayi nazardan aks etganlik darajasi	10 ballgacha
3.	Videorolikdagi mantiqiylik, ishtirokchining dunyoqarashi, fikrlash doirasi va e'tiborni jalb qila olishi	15 ballgacha
4.	Videorolik o'ziga xos bo'lishi va kundalik hayotda foydalanish uchun qulay bo'lishi	10 ballgacha
5.	Videorolikni sifatli va belgilangan vaqtda to'liq ochib berilganligi (ovoz, video, sifat)	15 ballgacha

T/r	Baholash mezonlari	Ballgacha
6.	Videorolikni jozibadorligi, boshqa videolardan ajralib turishi	10 ballgacha
7.	Telegram kanalda aholining bergan ovozlari ko'ra	25 ballgacha
	Jami:	100

Telegram kanalda aholining bergan ovozlari ko'ra ishtirokchilarga quyidagicha ballar taqdim etiladi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Ovoz berish jarayonlarida 1-o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchiga	25 ball
2.	Ovoz berish jarayonlarida 2-o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchiga	24 ball
3.	Ovoz berish jarayonlarida 3-o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchiga	23 ball
4.	Ovoz berish jarayonlarida 4-o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchiga	22 ball
5.	Ovoz berish jarayonlarida 5-o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchiga	21 ball
6.	Ovoz berish jarayonlarida 6-10-o'rinlarni qo'lga kiritgan ishtirokchilarga	20 ball
7.	Ovoz berish jarayonlarida 11-15-o'rinlarni qo'lga kiritgan ishtirokchilarga	15 ball
8.	Ovoz berish jarayonlarida 16-30-o'rinlarni qo'lga kiritgan ishtirokchilarga	10 ball
9.	Ovoz berish jarayonidagi qolgan barcha ishtirokchilarga	5 ball

18. Yakuniy baho ishtirokchi har bir baholash mezoni bo'yicha to'plagan ballarini qo'shish orqali hisoblanadi.

19. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan videoroliklarning yakuniy natijalari bo'yicha tanlov komissiya tomonidan eng yuqori ball qo'yilgan 5 nafar g'oliblar aniqlanadi.

20. Baholar teng bo'lgan taqdirda, tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Baholash natijalariga ko'ra tashkilotchi tanlov komissiyasi qarorining bayonnomasini tuzadi, bayonnoma ko'rik-tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

22. G'oliblarni rag'batlantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Eng yuqori ball to'plagan 5 nafar ishtirokchi tanlov g'oliblari deb topiladi va quyidagi qiymatlarda pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi:

1-o'rin - 30 million so'm pul mukofoti va maxsus sertifikat;

2-o'rin - 25 million so'm pul mukofoti va maxsus sertifikat;

3-o'rin - 20 million so'm pul mukofoti va maxsus sertifikat;

4-o'rin - 15 million so'm pul mukofoti va maxsus sertifikat;

5-o‘rin - 10 million so‘m pul mukofoti va maxsus sertifikat.

Shuningdek, tanlovda faol ishtiroki uchun 6-10-o‘rinlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar ham qimmatbaho esdalik sovg‘alari (noutbuk) bilan taqdirlanadi.

Sovrinni topshirish g‘olibning shaxsini tasdiqlovchi hujjat asl nusxasi (amaldagi fuqarolik pasporti/ID-karta) taqdim etilgandan so‘ng, ko‘rsatilgan ma‘lumotlar to‘liq mos kelganda amalga oshiriladi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

23. Tashkilotchilarga tanlovda g‘olib deb topilgan videoroliklardan, shuningdek, tanlovga topshirilgan lekin g‘olib bo‘la olmagan videoroliklardan keyinchalik ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilishda (tijoriy bo‘lmagan maqsadlarda foydalanish sharti bilan) foydalanish huquqi beriladi.

24. Tanlovda ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalarga va talablarga to‘liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to‘g‘ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi ko‘rik tanlovda qatnashishdan bosh tortishini anglatadi.

25. Ishtirok etish qoidalarini yoki ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday sharhlash va/yoki tushuntirish bo‘yicha yakuniy qaror to‘g‘ridan-to‘g‘ri va faqat tanlov tashkilotchilari tomonidan qabul qilinadi.

26. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mazkur nizom qoidalarida huquqiy bo‘shliqlar va ziddiyatlar yuzaga kelganda O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ish yuritiladi.

27. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tanlov ishtirokchilari qonunchilik hujjatlari buzilishi yuzasidan yuqori turuvchi tashkilotlarga murojaat qilishi mumkin.

28. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.